

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/10 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuziyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoza</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoza Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

INFORMATION ON THE ETHNIC SITUATION OF THE KOKAND KHANATE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK “TARIKH-I SHAHRUKHI”)

Olimov Nodirbek Anvarjon ugli

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences,
Associate Professor of the Andijan Regional Center of Pedagogical Mastery,
History teacher of the Presidential School of Andijan

Abstract. Today, special attention is paid to the study of local written sources and the introduction of new information about our national history into scientific circulation. In this regard, local written sources of this period are valuable for illuminating the ethnic situation in the Kokand Khanate, including the Fergana Valley. In them, one can find important information about the ethnic, ethnopolitical, ethnocultural, migration, and integration processes that took place in the Fergana Valley.

Keywords: Kokand Khanate, Fergana Valley, Andijan, Khudoyorkhan, Uzbeks, Tajiks, Mings, Kipchaks, integration, migration.

QO‘QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA‘LUMOTLAR (“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA)

Olimov Nodirbek Anvarjon o‘g‘li

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Andijon viloyat Pedagogik mahorat markazi v.b.dotsenti
Andijon shahridagi Prezident maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda mahalliy yozma manbalarni o‘rganish va ulardagi milliy tariximizga oid yangi ma‘lumotlarni ilmiy muomalaga olib kirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Shu o‘rinda Qo‘qon xonligida, shu jumladan, Farg‘ona vodiysidagi etnik holatni yoritishda ushbu davrga oid mahalliy yozma manbalar qimmatli hisoblanadi. Ulardan Farg‘ona vodiysida kechgan etnik, etnosiyosiy, etnomadaniy, migratsiya va integratsiya jarayonlari haqidagi muhim ma‘lumotlarni topish mumkin.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, Farg‘ona vodiysi, Andijon, Xudoyorxon, o‘zbeklar, tojiklar, minglar, qipchoqlar, integratsiya, migratsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N05>

Kirish. Ma‘lumki, XVIII asr boshlaridan to XIX asr 70-yillariga qadar Qo‘qon xonligi mavjud bo‘lgan. Xonlik aholisining ko‘pchiligini o‘zbeklar tashkil qilgan bo‘lib, ular asosan, dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan shug‘ullanib, o‘troq hayot tarziga ega bo‘lgan. Shuningdek, ularning ma‘lum bir qismi esa chorvachilik bilan shug‘ullanib, yarimko‘chmanchi tarzda hayot kechirgan.

Mahalliy tarixchilardan Is‘hoqxon Ibrat, Muhammad Niyoz Ho‘qandiy, Mirzo Rahim Toshkandiy, Shavqiy Namangoniy, Muhammadaziz Marg‘iloniy, Muhammadumar Umidiylar ushbu davrda yashab, ijod qilganlar. Ularning asarlarida Qo‘qon xonligida kechgan etnosiyosiy, etnomadaniy, migratsiya va integratsiya jarayonlari yaxshi yoritib berilgan. Ayrim yozma

manbalardagi e'tibor berilmagan ba'zi ma'lumotlar ishda tahlil qilinib, ilmiy iste'molga tortilgan.

Mavzuga oid muhim mahalliy manbalardan biri bu Mullo Niyoz Muhammad Ho'qandiyning "Tarixi Shohruxiy" nomi bilan ma'lum "Ibratul-havoqin" asaridir. Ushbu asar Qo'qon xoni Xudoyorxonning buyrug'i bilan 1871–1872-yillarda tojik va o'zbek tillarida yozilgan. Hozirda ushbu asar qo'lyozmasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida fors-tojik tilida 1787-, o'zbek tilida esa 4460/1-raqam bilan saqlanadi. Mazkur asar Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan bo'lib, unda xonlik tashkil topishidan 1870-yillarigacha bo'lgan davrdagi ushbu davlat tarkibiga kirgan hududlarning ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etilgan [6. B.69].

Ushbu asar muallifi Niyoz Muhammad 1803-yilda tavallud topgan deb taxmin qilinadi. Uning bobosi G'aribdo'st Qorategin kelib chiqishiga ko'ra tojiklardan bo'lib, Norbo'tabiy qo'shinida xizmat qilgan. G'aribdo'st Qorateginning o'g'illari, shu jumladan Niyoz Muhammad va uning akalari ham Qo'qon xonligi qo'shinida xizmat qilgan. Keyinchalik harbiy xizmatdan bo'shab, attorlik bilan shug'ullangan. Qozoq tarixchisi T. K. Beysembiyevning ma'lumotlariga ko'ra, Niyoz Muhammad 1877-yilda vafot etgan, biroq asarni o'zbek tiliga tarjima qilgan olim Shodmon Vohidov o'z qo'lida bo'lgan "Ibratul-havoqin" asari nusxasiga tayanib, uni 1889-yilda ham tirik bo'lganini taxmin qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlarda keltirilishicha, "Tarixi Shohruxiy"ning matni sharqshunos olim, etnograf N. N. Pantusov tomonidan 1885-yilda Qozon shahrida chop etilgan. Uning ayrim parchalari V. V. Bartol'd, N. G. Malliskiy va V. A. Romodin tomonidan rus tiliga tarjima qilingan [2. B.212]. Mazkur asar qozoq tarixchisi T. K. Beysembiyev va sharqshunos Sh. H. Vohidov tomonidan maxsus o'rganilgan.

Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiyning "Tarixi Shohruxiy" asari Farg'ona vodiysi aholisining etnik tarkibini o'rganishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Chunki ushbu asarda Farg'ona vodiysi hududida yashagan turli etnik jamoalar (urug', qabila, elat va boshqalar)ning joylashuvi, etnik tuzilishi hamda ularning Qo'qon xonligidagi etnosiyosiy va etnomadaniy jarayonlardagi ishtiroki haqida ham muhim ma'lumotlar keltirilgan.

"Tarixi Shohruxiy" asarida Farg'ona vodiysida yashagan turli etnik jamoalarning joylashuvi haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan. Manbada ko'rsatilishicha, qipchoqlar vodiyni, asosan, Qoradaryo va Norin daryolari oralig'i hamda unga tutash hududlarda, qirg'izlar esa Farg'ona vodiysining tog' va tog'oldi mintaqalarida joylashgan [1. B.23]. Dala etnografik tadqiqotlarga ko'ra, qipchoqlar va qirg'izlarning ayrim guruhlar hozir ham shu hududlarda yashab kelmoqda. Shuningdek, ushbu manbada ayrim yarimo'troq (yarimko'chmanchi) xalqlar etnik tarkibidagi urug'lar nomlari ham qayd qilingan. Masalan, qirg'izlarning munduz, duz, avahat va quramalarning tama urug'i haqidagi ma'lumotlar shular jumlasidandir [3. C.78].

Farg'ona vodiysi aholisining o'sha davrdagi etnik tarkibi quyidagicha bo'lgan: o'troq aholi – sart, tojik va o'zbeklardan, ko'chmanchi hamda yarimko'chmanchi aholi esa, asosan, qipchoq, qirg'iz, turk, qoraqalpoq, cho'nbag'ish va qalmoqlardan iborat bo'lgan [3. C.78,79].

Niyoz Muhammad Ho'qandiyning "Tarixi Shohruxiy" asarida Qo'qon xonligi aholisining qo'shni mamlakatlar aholisi bilan etnik va etnomadaniy aloqalari haqida ham e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan. Tarixdan ma'lumki, Qo'qon xoni Xudoyorxon uchinchi marta taxtga o'tirgan davri (1865-yil)da bir necha ming qirg'iz va qipchoq aholisi Sharqiy Turkistonga ketadi [7. B.464]. Farg'ona vodiysidan Sharqiy Turkistonga ko'chib borganlarni andijoni, Qoshg'ardan

vodiy hududlariga kelgan aholini esa tog'lik deb nomlanganligi qayd qilingan [1. B.27]. Shuningdek, manbada qoshg'arlik musulmon aholining vodiya migratsiyasi sabablari ham keltirilgan.

Natija va muhokamalar. Mazkur manbada Farg'ona vodiysiga Pomir va O'rta Sharq xalqlarining migratsiyasi bilan bog'liq ma'lumotlar ham keltirilgan. Unga ko'ra, Pomirning Qorategin, Voxan, Darvoz, Badaxshon, Shug'on, Rushon, Chatror kabi aholi manzilgohlaridan ko'chib kelib, Farg'ona vodiysida yashayotgan tog'lik tojiklar Qo'qon xonligi qo'shinida xizmat qilganligi qayd etilgan [4. B.25]. Ushbu asarda etnografik jihatdan muhim ma'lumot keltirilgan, ya'ni Qo'qon xonligi hududidagi tojiklarga nisbatan g'alcha ("tog'lik tojik") atamasi qo'llanilganligini ko'rish mumkin [3. C.81]. Bugungi kunda ham vodiyni ayrim hududlarida „g'alcha“ nomli etnotoponimlar mavjud.

1863-yilda Xudoyorxon Andijondagi qipchoq va qirg'izlarning isyonini bostirish uchun yuborgan guruh tarkibida tojiklardan Xoliqnazar hamda Muhammad sayyidlar ham bo'lgan [7. B.260]. Shuningdek, asarda kelib chiqishi Afg'onistondan bo'lgan shaxslar Qo'qon xonligi qo'shinida xizmat qilganligi haqidagi ma'lumotlar ham mavjud. Masalan, unda yevropacha harbiy bilan yaxshi tanish bo'lgan Jamador afg'on ismli kishi xon qo'shinlarini to'pchilar guruhiga qo'mondonlik qilganligi qayd etilgan [3. C.81].

Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy qalamiga mansub "Tarixi Shohruxiy" asarining ushbu tadqiqot uchun ahamiyatli jihatlari biri shundaki, unda juda ko'plab etnoslarning nomlari qayd etilgan. Xususan, asarda ming, yuz, turk, qipchoq, qurama, qalmoq, jung'or, cho'nbag'ish, qoraqalpoq, qozoq, o'zbek, munduz, tama, mang'it, tojik, afg'on, xitoy, qoshg'arlik kabi etnonimlar ko'p uchraydi va ushbu xalqlarning nomlari xonlikda yuz bergan etnosiyosiy jarayonlar kontekstida kuzatiladi. Masalan, Qo'qon xonligida qipchoq qabilasini nufuzining oshishi Musulmonqul nomi bilan bog'liq. Tarixdan ma'lumki, Musulmonqul qipchoqlarni markaziy hokimiyatga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga chaqirgan. Markaziy hokimiyatga bosim o'tkazgan Musulmonqul dastlab Andijonga hokim etib tayinlanadi. Keyinchalik xonlikda Musulmonqul o'z mavqeyi oshib borishi bilan boshqa qipchoq urug'larining ham markaziy hokimiyat boshqaruvidagi faol ishtirokini ta'minladi. Xususan, ular xonlikning otaliq, mingboshi, parvonachi, dasturxonchi kabi lavozimlarni egallaganlar [8. C.9].

Biroq keyinchalik yuz bergan etnosiyosiy jarayonlar natijasida qipchoq qabilasiga mansub urug'lar o'rtasida o'zaro nizolar kelib chiqadi. Natijada, xonlik hududida Musulmonqulga qarshi norozilik harakati kuchayadi va u mingboshilikdan bo'shatiladi. Musulmonqul o'z mavqeyini tiklash niyatida ruslar bilan aloqa o'rnatishga intiladi va ularning vakili bo'lgan V. V. Velyaminov-Zernov bilan 1853-yilning bahorida maxfiy tarzda uchrashadi. Musulmonqulning rus qo'mondonligi vakili bilan uchrashganligi hamda hokimiyatni o'z qo'liga olmoqchi bo'lganligini eshitgan o'zbek va qirg'iz zodagonlari qipchoqlardan qutulish yo'lini axtarib, ular Xudoyorxonni o'z taraflariga og'dirib, 1853-yilda qipchoqlar qirg'inini boshlab yuboradilar [5. B.319]. Mazkur qirg'in oqibatida Musulmonqul bilan birga 20 mingdan ortiq qipchoqlar ham qatl qilingan [4. B.33]. Lekin shuni alohida qayd etish ham joizki, asarda Qo'qon xonligidagi etnik guruhlarining eng nufuzlilaridan biri bo'lgan qipchoqlar va ularning etnosiyosiy jarayonlardagi ishtiroki ancha yaxshi bayon qilingan.

Asarda nafaqat qipchoqlar, balki boshqa etnik jamoalarning ham Qo'qon xonligi etnosiyosiy jarayonlaridagi ishtiroki haqida ma'lumotlar uchraydi. Masalan, asardagi ma'lumotlarga ko'ra, Mallaxon o'z ukasi Xudoyorxonga qarshi qirg'iz, qipchoq, turk,

qoraqalpoq, jonbag'ish, qalmoqlardan iborat qo'shin tuzib, xonga qarshi qo'zg'olon ko'taradi [7. Б.229]. Tarixdan ma'lumki, 1858-yilda ushbu qo'zg'olon natijasida Mallaxon Qo'qon xoni etib tayinlanadi. Biroq 1862-yilda Mallaxonning o'ziga qarshi isyon ko'tariladi. Ushbu isyonda, asosan, qirg'izlarning o'ttiz o'gul urug'idan Xidir dodxoh va munduz urug'iga mansub Olimbek, turk etnografik guruhidan Xudoynazar va yuzlardan bo'lgan Do'st yuz kabilar ishtirok etgan [7. Б.230].

Xulosa. Xullas, Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiyning "Tarixi Shohruxiy" asarini tahlil qilish orqali Qo'qon xonligi siyosiy jarayonlarida turli xil etnografik guruhlarining faol ishtirok etganligini ko'rish mumkin. Etnik holat mavzusiga doir mazkur mahalliy manba hamda uning tavsifidan xulosa qiladigan bo'lsak, ushbu davr mahalliy manbalarida Farg'ona vodiysi etnik holati to'g'risidagi ma'lumotlarning tarqoqligi, kamligi, mazkur mahalliy manbalarga nisbatan tanqidiy yondashuvni va ulardan foydalanishni taqozo etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдуллаев У. С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX – XX аср бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.
2. Аҳмедов. Б. А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.
3. Бейсембиев Т. К. "Тарихи Шахрухи" – как исторический источник. – Алма-ата, 1987.
4. Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996.
5. Бобоев Ҳ., Хидиров З ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи. II китоб. – Тошкент: Фан ва технология, 2009.
6. Зиёева Д. Ҳ. Ўзбекистон тарихига оид манба ва тадқиқотлар (XIX аср – XX аср бошлари). – Тошкент: Nurafshon business, 2022.
7. Мулла Ниёз Муҳаммад Ҳўқандий. Тарихи Шоҳрухий / Ш. Воҳидов таржимаси ва изоҳи. – Тошкент: Турон zamin ziyo, 2014. – 700 б.
8. Петровский Н. Ф. Очерки Кокандского ханства / Туркестанский сборник. – СПб., 1875. Том. 75.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).